

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 111 (1710), 2026-yil 3-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## ILM-FAN BILAN TARAQQIYOTGA YUZ TUTAYOTGAN YANGI AVLOD SANOAT KORXONALARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2-iyun kuni “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkiga tashrif buyurib, bir qator korxonalar faoliyati bilan tanishdi hamda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishini o‘tkazdi.



Kimyo sanoati — eng muhim tarmoqlardan. U xomashyolarni qayta ishlash orqali iqtisodiyot uchun zarur mahsulotlar yetkazib beradi. Shu bois, mazkur sanoat tarmog‘i qanchalik rivojlangan, boshqa sohalar ham taraqqiy etadi. Ya‘ni ko‘plab sohalar faoliyati aynan kimyo sanoati bilan bog‘liq. So‘nggi paytlarda qaratilayotgan e‘tibor tufayli tarmoqda muayyan natijalarga erishilmoqda.

Yangi-yangi ishlab chiqarish subyektlari foydalanishga topshirilib, iqtisodiyotimiz ravnaqi va aholi turmush sharoitini yaxshilashga munosib hissa qo‘shmoqda.

Chirchiq nafaqat Toshkent viloyati, balki respublikamizdagi yirik sanoat shaharlaridan. Ammo muayyan davrda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish sur‘ati keskin pasayishi yoki batamom to‘xtab qolishi tufayli ko‘pchilik

chirchiqliklar doimiy ish o‘rni — muqim daromad manbaidan ayrildi. Iqtisodiyotda ayrim zarur mahsulotlar taqchillashib qoldi. Natijada, bir tomondan, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ikkinchi tomondan, iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bozorda import mahsulotlar ko‘paydi. Tarmoq uchun zarur xomashyoning yurtimizda mavjudligini inobatga olsak, bu yaxshi holat emasdi.

Mamlakatimizda keyingi 9-10 yil nari-berisida boshlangan keng ko‘lamli yangilanishlar shiddati, yangi O‘zbekiston ishlohotlari nafasi ushbu shaharni, aniqrog‘i, uning asosiy quvvati bo‘lgan kimyo sanoati tarmog‘ini ham chetlab o‘tmadi. Xususan, ko‘plab ijtimoiy soha infratuzilma obyektlari, ko‘p qavatli zamonaviy uy-joylar, savdo va servis majmualari barpo etildi. Qator oliy ta‘lim muassasalari poytaxtdan ushbu shaharga ko‘chirildi. Ayniqsa, shaharning sanoat yo‘nalishidagi mavqei tiklash va uni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yirik loyihalar amalga oshirilgani diqqatga sazovor.

Bundan to‘rt yil oldin foydalanishga topshirilgan “Chirchiq” kimyo-industrial texnopark ana shunday loyihalardan. Davlatimiz rahbarining “Toshkent viloyatida “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida faoliyat boshlagan mazkur texnopark kimyo mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Umumiy maydoni 26,4 gektardan iborat hududda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga 25 million dollar yo‘naltirildi.

Texnoparkning investitsiyaviy jozibadorligi aniq raqamlarda aks etadi. Jumladan, o‘tgan yili 56 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirilib, 758 ta yangi ish o‘rni ochildi. Yil davomida korxonalar tomonidan 60 million dollarlik 150 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqarildi.

Kelgusi rejalar ham ulkan. 2030-yilga qadar investitsiyalar hajmini 207 million dollarga, tovar ishlab chiqarish qiymatini 294 million dollarga, eksportni 48 million dollarga

yetkazish hamda ish o‘rinlari sonini 2300 taga oshirish belgilangan.

Davlatimiz rahbari dastlab ushbu texnopark hududida faoliyat yuritayotgan “Kmita Polymers” korxonasi tashrif buyurdi.

Rossiyaning “Polymers” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu loyiha maxsus va keng turdagi polietilen pilyonka mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan pilyonkalar bir qarashda oddiy mahsulotdek tuyuladi. Lekin zamonaviy iqtisodiyotda uning ahamiyati katta. Aytaylik, dehqon yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qurilish materiallari, umuman, boshqa turdagi mahsulotlarni xavfsiz tashish, xaridorga butun va tashqi ta‘silardan himoyalangan holda yetkazib berish, qadoqlashda ushbu pilyonkalar juda asqatadi.

Ayni paytda 6670 kvadrat metr maydonni egallagan korxonada Italiyaning zamonaviy texnologik uskunalar yordamida keng assortimentdagi polimer va termoplastik mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, bungacha ushbu turdagi mahsulot chet eldan olib kelinardi. Buning uchun sarflanadigan mablag‘ ham chakana emas edi. Korxonada ishga tushirilishi bilan 9,5 million dollarlik import o‘rni qoplandi. Bu korxonada ham, iqtisodiyot uchun ham kichkina raqam emas, albatta.

Loyiha ikki bosqichli kengaytirish dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Investitsiyalarning umumiy qiymati 15,2 million dollarni tashkil etadi. Uning birinchi bosqichida 7,4 million dollar investitsiya o‘zlashtirildi. Loyiha doirasida 50 kishining bandligi ta‘minlandi va bu chegara emas. Chunki keyingi bosqichlarda ish o‘rinlari soni yanada ko‘payadi. Korxonada o‘tgan yili 115 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shu bilan birga, 6 million dollarlik mahsulot Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilindi.

Korxonada mahsulotlariga dunyo bozorida tanilgan brend egalari ham xaridor. “Coca-Cola”, “Pepsi”, “Flash”, “Chernogolovka”, “Ackerman”, “Asl Oyna”, “Biolife” va “Family Group” shular jumlasidan. Ular qadoqlashda ayni shu korxonada pilyonkalaridan foydalanadi.

Qadoqlash industriyasi zamonaviy sanoatning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri ekan ta‘kidlandi. Chunki mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib borgani sari uni xavfsiz saqlash, tashish va bozorga yetkazib berish talablari ham kuchayayotgani qayd etildi.

Shu ma‘noda, bunday korxonalar sonining ko‘payishi, yuqorida qayd etilganidek, faqat bir tarmoq rivojiga emas, balki boshqa sohalar ham muttasil ishlashga xizmat qiladi. Ya‘ni bir tarmoq boshqa sohalaridagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Shu tariqa o‘ziga xos ishlab chiqarish zanjiri vujudga keladi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari texnoparkdagi yana bir zamonaviy ishlab chiqarish quvvati — “NovoPlast TPE” korxonasi faoliyatini bilan tanishdi.

Loyiha Rossiyaning “VR Plast” korxonasi bilan hamkorlikda 4200 kvadrat metr maydonda amalga oshirildi. Uning umumiy qiymati 5,4 million dollarni tashkil etadi.

Korxonada zamonaviy. Ilg‘or laboratoriya va innovatsion ishlab chiqarish liniyalarga ega. Shu bois, mutaxassislar uni termostatik elastomer granular va ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mahalliy yetakchi korxonalardan biri sifatida e‘tirof etadi. Korxonada yuqori sifatli termoplastomerlar, eshik va romlar uchun zichlagichlar, texnik hamda oziq-ovqat sanoati uchun mo‘ljallangan shlanglar, shuningdek, qurilish va elektrotexnika tarmoqlari uchun turli polimer mahsulotlar tayyorlanmoqda.

Davomi 3-betda

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 4-5-iyun kunlari amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahrida bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari “Pragmatik muloqot — barqaror kelajak sari yo‘l” shiori ostida o‘tadigan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi yig‘ilishida ishtirok etadi va nutq so‘zlaydi.

O‘zbekiston yetakchisi jahon iqtisodiyotidagi vaziyat, O‘zbekiston — Rossiya iqtisodiy

hamkorligini rivojlantirish istiqbollari borasidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashadi, shuningdek, mamlakatimizni rivojlantirishning bugungi ustuvor yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tadi.

Tashrif dasturida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuv

o‘tkazish hamda yurtimizda birinchi integratsiyalangan atom elektr stansiyasi qurilishini boshlash marosimida ishtirok etish ko‘zda tutilgan.

O‘za

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### MADANIYAT, SAN‘AT VA ADABIYOT SOHALARINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KENG KO‘LAMLI CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

2026-yil 1-iyun kuni o‘tkazilgan madaniyat, san‘at va adabiyot xodimlari bilan sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, ijodkorlarga munosib shart-sharoitlar yaratish hamda sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida qaror qilaman:

I. Asosiy maqsadlar  
1. Quyidagilar ushbu Farmoni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar etib belgilansin:

(a) teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg‘u, tasviriy va amaliy san‘at hamda adabiyot kabi yo‘nalishlarda ijodiy birlashmalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash;

(b) ijodkorlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ularning xalqaro tanlovlardagi ishtiroki sonini 2027-yilda 20 foizga, g‘oliblar sonini 30 foizga, 2030-yilga qadar ishtirokchilar sonini 5 baravarga, g‘oliblar sonini esa 2 baravarga oshirish;

(v) shoir va yozuvchilar tomonidan har yili kamida 50 ta eng sara asarlar yaratilishini, milliy adabiyotning eng yaxshi 10 ta asari xorijiy tillarga tarjima qilinishini ta‘minlash;

(g) ijodkorlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, jumladan, har yili 1 ming nafar ijodkorni uy-joy bilan ta‘minlash, 3 ming nafarini bepul davolash;

(d) nodavlat teatr va teatr-studiyalar sonini 2028-yilda 50 taga yetkazib, teatr sohasida xususiy sektor ishtirokini 25 foizga oshirish.

II. Sohada iste‘dodlarni yuzaga chiqarishning yangi tizimini joriy etish

2. Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi va keng ijodkorlar jamoatchiligining 1-ilovaga muvofiq madaniyat, san‘at va adabiyot sohalarida ijodiy birlashmalarni (keyingi o‘rinlarda — ijodiy birlashmalar) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

3. Belgilansinki:

(a) ijodiy birlashmalar ijodiy rahbarlari va ularga tashkiliy masalalarni hal etishda ko‘maklashuvchi hamrahbarlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi;

Davomi 2-betda



Yangi O‘zbekistonim, buzrukorim, ulug‘im,  
Ham onamsan, baxshida senga ta‘zim, qullug‘im,  
Yuzi nurli pariro‘y, poy qadam qutlug‘im,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Birov kurab bermaydi gar boshingga yog‘sa qor,  
O‘ttiz sakkiz milyon jon bir-biriga do‘st-u yor,  
Sen bog‘bon, bobodehqon, sensan daho bunyodkor,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

O‘ttiz besh yil tarixing o‘ttiz besh ming dostonidir,  
O‘ttiz besh ming Firdavsiy boqib lol-u hayronidir...  
Yoza, qalam gullagay, har sahifa bo‘stondir,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Kamtarlikda maysa-yu orzulari osmonsan,  
Sen do‘stlikda namuna, qo‘li ochiq mezbonsan,  
G‘animga murosasiz, o‘tib bo‘lmas qo‘rg‘onsan.  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Jahon xaritasida bir yurt qaddin ko‘targay,  
Bu yurtda har islohot inson qadri ko‘targay,  
Insonlari birlashib, eling mardini ko‘targay,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Oliy maydonlar uzra muzaffar o‘g‘il-qizing,  
Oltin medal shu‘lasi yoritib turgay yuzing,  
Kundan kunga charaqlar, ajab, tole yulduzing,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Marrani baland olib borarsan, yo‘ling ravon,  
Turishing shohona-yu turmushing ham farovon,  
Bugun yorug‘ iqboling, ertang undan charog‘on,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Bu bog‘laring gullagay, fasling mangu bahordir,  
Bir zot baxtingni o‘ylab, kechalari bedordir,  
Xudoyim nazar qilgan oqil Sarboning bordir,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Qara, ne-ne yurtlarda bizdek kula olmaslar,  
“Tinchlik ber!” deb bo‘zlagay uzatib zar-olmaslar,  
Bu musaffo osmonni tiloga topolmaslar,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Ko‘z tegmasin, jonajon, aylanayin bo‘yingdan,  
Shoir bo‘ldim, yor emas, sening ishq ko‘yingdan.  
Bir she‘r o‘qigim keldi “Mustaqillik to‘yi”ngda,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Biznikidir bu davlat, bu sharqona jamiyat,  
O‘zbekona nomus-or, o‘zbekona hamiyat,  
Ilm-u fan, adabiyot, san‘at-u madaniyat,  
Yagona Vatan ichra bir xalq bo‘lib mushtarak,  
Yangi hayot quramiz, yaratamiz kelajak!

Zohidjon OLOV,  
“Shuhrat” medali sohibi, shoir

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

MADANIYAT, SAN'AT VA ADABIYOT SOHALARINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KENG KO'LAMLI CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

(b) ijodiy rahbar o'z yo'nalishida yangi iqtidorlarni yuzaga chiqarishga mas'ul hisoblanadi;

(v) ijodiy birlashmalarga birlashtirilgan hamrahbarlar:

(i) ijodiy birlashma hamda uning yo'nalishiga mos ijodkorlar va jamoalar faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga mas'ul hisoblanadi;

(ii) ijodiy birlashma yo'nalishi bo'yicha mahalla – tuman – viloyat – respublika darajasidagi tanlovlar va madaniy tadbirlarning yillik reja-grafigini ijodiy rahbarlar bilan birgalikda tasdiqlaydi hamda ularni tashkil qiladi;

(iii) xalqaro va respublika tanlovlari g'olib va sovrindorlarining gastrol safarlarini tashkil etishga hamda xalqaro festival va tanlovlarda ishtirok etishiga ko'maklashadi;

(g) hamrahbarlarga o'zlarini bevosita rahbar bo'lgan muassasa (tashkilot, korxonaga) va uning tizim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijodiy birlashmalarga mablag' yo'naltirishga ruxsat beriladi;

(d) ijodiy birlashmalarining faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan homiylik xayriyalari metssenatlik ko'magi hisoblanadi hamda ularga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo'llanadi;

(j) 2027-yildan boshlab ijodiy birlashmalar yillik ijodiy hisoboti shaklida Milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkaziladi hamda unda ijodiy birlashmalar yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda rag'batlantiriladi;

(i) ijodkorlarning badiiy kechasi, mahorat maktabi va ijod uylari tashkil etiladi;

(ii) bir yil davomida har oyda 5 million so'm miqdorida jonkorlar to'lanadi;

(iii) uch yil davomida O'zbekiston bo'yab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi, bunda tashish xarajatlari bo'yicha olinmay qolgan daromadlar keyinchalik har oyda qoplab beriladi;

(iv) davlat tibbiyot muassasalarida davolanish xarajati to'liq qoplanadi.

4. Iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish, ularning produserlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan biznes loyihalarni moliyalashtirish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomida "Ijodga investitsiya" davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamg'armaga 2026-yil 1-iyulga qadar respublika budjeti hisobidan 200 milliard so'm mablag' ajratish chorasini ko'rsin hamda 2027-yildan boshlab davlat budjeti parametrlarida har yili kamida 200 milliard so'm mablag' ajratilishini nazarda tutsin.

6. Madaniyat vazirligi 2026-yil 1-iyuldan boshlab Jamg'arma hisobidan ochiq va shaffof tizim asosida eng istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'ysin.

7. Madaniyat vazirligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2027-yildan boshlab har yili teatr, cholg'u, xor va raqs yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida tuman – viloyat – respublika darajasida tanlovlarni o'tkazib borishni yo'lga qo'ysin. Bunda:

(a) har bir yo'nalish bo'yicha respublika darajasidagi tanlovda g'olib deb topilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasiga o'z ijodini targ'ib qilish, sahna dekoratsiyalari va liboslari, musiqa asboblari xarid qilish uchun Jamg'arma mablag'lari hisobidan 500 million so'mdan grant beriladi;

(b) respublika tanlovi g'oliblari madaniyat va san'at yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim tashkilotlariga kirishda ijodiy imtihondan ovoz etiladi va ularga maksimal ball beriladi.

8. 2026-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga milliy cholg'u asboblarni sotib olish xarajatlarining 30 foiz qismini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tizimi joriy qilsin.

III. Sohani qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish

9. Belgilansinki, 2026-yil 1-sentabr dan 2036-yil 1-yanvargacha qadar:

(a) asosiy faoliyati konsert-tomosha, kinematografiya, bolalar uchun kontent yaratish bo'lgan subyektlar, nodavlat teatr va teatr-studiyalar hamda madaniyat va san'at yo'nalishidagi xususiy ta'lim tashkilotlari qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'idan, ularida ishlovchi xodimlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi;

(b) xorijiy kompaniyalarning O'zbekiston hududida kino mahsulotini yaratish bilan bog'liq faoliyati natijasida olgan daromadlari O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to'lov manbaida soliq solishda soliq bazasiga kiritilmaydi.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Soliq qo'mitasi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu Farmonning 9-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. Quyidagilarni davlat budjeti mablag'lari hisobidan har yili moliyalashtirish tizimi joriy etilsin:

(a) Yiliga kamida 50 ta eng sara asarlarni yaratish uchun shoirva yozuvchilarga ijodiy buyurtma berish;

(b) opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo'yicha har yili kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun ijodkorlarga davlat buyurtmasi berish;

(v) har yili milliy adabiyotning eng sara 10 ta asarini xorijiy tillarga tarjima qilish va mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimotlar o'tkazish xarajatlarini qoplab berish;

(g) Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarni nashr etish uchun qog'oz xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish;

(d) she'riyat bilan san'atni uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladigan eng sara 100 ta she'riy konsertlarni o'tkazish bo'yicha davlat buyurtmasi berish.

12. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu Farmonning 11-bandida belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun respublika budjeti hisobidan 2026-yilda 25 milliard so'm, 2027-yildan boshlab har yili 50 milliard so'm ajratsin.

13. Iste'dodlar va ularning ustozlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2026-yil 1-sentabr dan boshlab:

(a) madaniyat, san'at va adabiyot sohasidagi nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari g'olib va sovrindorlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorlarda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

(i) Gran-pri va 1-o'rin g'olibi – xalqaro tanlov bo'yicha 300 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 100 million so'm miqdorida;

(ii) 2-o'rin sohibi – xalqaro tanlov bo'yicha 200 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 50 million so'm miqdorida;

(iii) 3-o'rin sohibi – xalqaro tanlov bo'yicha 100 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 25 million so'm miqdorida;

(b) tanlovlarning g'olib va sovrindorlarini tayyorlagan o'qituvchi (konsertmeyster) ning oylik maoshiga bir yil davomida 100 foizgacha ustama Davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi;

(v) nufuzli xalqaro tanlovlarning g'olib (sovrindor)lari va ularning o'qituvchi (konsertmeyster)larining tanlovlarda ishtirok etishi xarajatlari to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi;

(g) ushbu bandeda nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash choralarini xususiy sektorda faoliyat yurituvchi shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

(d) ushbu bandeda nazarda tutilgan nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilangan tartib asosida aniqlanadi.

IV. Soha vakillarining ijtimoiy ta'minotini yanada mustahkamlash

14. 2026-yil 1-iyuldan boshlab har yili 1000 nafar uy-joyga muhojir madaniyat, san'at va ijodiy soha vakillariga birlamchi bozordan kvartira sotib olish uchun quyidagi tartibda ipoteka kreditlarini ajratish yo'lga qo'yilsin, bunda:

(a) Ipoteka dasturi doirasida ipoteka kreditlari ajratishda boshlang'ich to'lov kredit oluvchi tomonidan 2-ilovada belgilangan miqdorlarda shakllantiriladi, bunda shakllantiriladigan boshlang'ich to'lovning 50 foizi hamda kredit muddatining birinchi besh yili davomida to'lanadigan kredit foizlarining 10 foizlik punktdan oshgan qismi Davlat budjetidan qoplab beriladi;

(b) boshlang'ich to'lovning 50 foizini qoplab berish Iqtisodiyot va moliya vazirligining "subsidiya.idm.uz" dasturiy ta'minot tizimi orqali avtomatlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari madaniyat sohasi vakillarini zarur uy-joylar bilan ta'minlashga mas'ul etib belgilansin.

16. Bir hududdan boshqa hududga kelib ishlayotgan va ushbu hududda o'z uy-joyiga ega bo'lmagan madaniyat, san'at va adabiyot sohalari vakillariga uy-joy ijarasi to'lovlarining bir qismini quyidagi miqdorlarda qoplab berish tartibi joriy etilsin:

(a) Toshkent shahrida – bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari;

(b) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari.

17. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mazkur Farmonning 14- va 16-bandlarida nazarda tutilgan xarajatlarni uchun 2026-yildan boshlab har yili Davlat budjetidan 50 milliard so'm ajratsin.

18. 2026-yil 1-iyuldan boshlab ijodiy birlashmalarining tavsiyasi asosida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlarni qoplab berish yo'lga qo'yilsin:

(a) har yili 1 ming nafargacha Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davolanish bo'yicha imtiyozga ega bo'lmagan, biroq o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishgan madaniyat, san'at va adabiyot sohalari vakillariga yuqori texnologik operatsiyalarni o'tkazish;

(b) har yili 2 ming nafargacha madaniyat, san'at va adabiyot sohalari vakillariga sug'urta mukofoti bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan ortiq bo'lmagan ixtiyoriy tibbiy sug'urta badallari uchun xarajatlarning 50 foizini qoplab berish;

(va) har yili 100 nafargacha sohada kamida 10 yil ishlagan madaniyat, san'at va adabiyot sohalari vakillariga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi sanatoriylarida bepul davolanish.

19. Belgilansinki:

(a) 2026-yil 1-sentabr dan boshlab budjetdan moliyalashtiriladigan teatr va konsert-tomosha muassasalarida faoliyat yurituvchi raqs jamoasining badiiy rahbari, baletmeysteri, repetitorlari, balet artistlarining lavozim maoshlarini maoshlari miqdoriga va (yoki) Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga asosan belgilashda tarif koeffitsiyentlari miqdori Davlat budjeti hisobidan 2 baravarga oshirilgan holda qo'llanadi;

(b) davlat muassasalarida raqs san'ati sohasida faoliyat yuritayotgan raqqos va raqqosalarni imtiyozli ish staji bilan pensiyaga chiqarishda talab etiladigan 20 yillik ish stajining kamida 15 yili raqqos va raqqosalik faoliyatidan iborat bo'lgan taqdirda, qolgan 5 yili uchun baletmeyster va balet bo'yicha repetitor faoliyati bilan shug'ullangan davrni inobatga olishga ruxsat beriladi.

20. Nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026-yil 1-sentabr dan boshlab hududlarda inklyuziv ijodiy ustaxonalar tashkil qilsin. Bunda inklyuziv ijodiy ustaxonalarni tashkil etish hamda ularni darsliklar va ijod uchun zarur anjomlar bilan ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 30 milliard so'm ajratib beriladi.

21. 2026-yil 15-iyundan boshlab 3-ilovaga muvofiq davlat mukofotlari bilan taqdirlangan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi aeroport va temir yo'l vokzallaridagi "VIP" zallardan bepul foydalanish huquqi berilsin.

V. Sohada nodavlat sektor faolligini oshirish

22. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2026-yil 1-sentabr dan boshlab:

(a) nodavlat teatr va teatr-studiyalarning quyidagi xarajatlarini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi:

(i) har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajatlari;

(ii) har oyda xususiy binoni ijaraga olish xarajatlarining bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan qismi;

(b) davlat madaniyat obyektlari ularning bo'sh vaqtlarida nodavlat teatr va teatr-studiyalarga spektakl namoyish etish uchun ijara to'lovizis foydalanish uchun beriladi. Bunda tomosha zallari uchun talabgorlar ikkita yoki undan ko'p bo'lgan taqdirda, ular orasida tanlov o'tkaziladi;

(v) ushbu bandeda "a" kichik bandida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun har yili Davlat budjetidan qo'shimcha 10 milliard so'm ajratiladi.

23. Belgilansinki, 2026-yil 1-iyuldan boshlab Davlat budjeti mablag'lari hisobidan:

(a) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda (Nukus shahri va viloyatlar markazlari bundan mustasno) konsert-tomosha tadbiri tashkil etilgan va bir tadbir doirasida 1 000 tadan ortiq bilek sotilgan taqdirda, konsert-tomosha tashkilotchilariga sotilgan biletlar qiymatining 20 foiziga teng bo'lgan miqdorda subsidiya beriladi;

(b) davlat va nodavlat teatrlarga o'zi faoliyat yuritayotgan joyda sahnalashtirilgan spektakl uchun sotilgan har bir chiptaga qo'shimcha 10 ming so'm, boshqa hududga chiqqan holda namoyish etilgan taqdirda, 20 ming so'm miqdorida subsidiya beriladi.

24. Belgilansinki, 2026-yil 1-oktabrdan boshlab har yili 500 ming nafar o'qituvchi, shifokor, davlat xizmatchisi, faol o'quvchi va talabalarga hamda Ijtimoiy reyestriga kiritilgan 100 mingta oilalarning bir nafar farzandiga, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarga teatr, kino va konsert tadbirlari uchun bepul vaucher beriladi, bunda:

(a) vaucher qiymatidagi mablag'lar shaxslarning nomiga ochiladigan ijtimoiy karta orqali taqdim etiladi;

(b) vaucher berish bilan bog'liq xarajatlarni tegishli ravishda Davlat budjeti mablag'lari hamda Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

VI. Kinoindustriya sohasini yanada rivojlantirish

25. Xususiy kinostudiyalarning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish hamda sohada erkinlik va raqobat muhitini shakllantirish maqsadida:

(a) Milliy kinematografiya, kinokompaniya va kinoteatrlar tarmog'ini yanada rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi, Milliy kinematografiya rivojlantirish markazi, Kinematografiya agentligi huzuridagi Badiiy kengash faoliyati hamda har bir filmga maslahatchilar guruhini birkitirish amaliyoti tugatilsin;

(b) davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan filmlarning mavzusidan kelib chiqib, soha mutaxassislaridan iborat haq to'lanadigan ekspert guruhlari tashkil qilib borilsin. Bunda Badiiy kengash tomonidan ma'qullangan va (yoki) ishlab chiqarishga tushirilgan loyihalarni yakunlash ushbu kengash tomonidan amalga oshiriladi va ular bo'yicha ekspert guruhlarining xulosasini olish talab etilmaydi;

(v) "O'zbekfilm" kinokonserni" davlat muassasasiga "milliy" maqomi berilsin hamda uning faoliyatini mahalliy va xalqaro kinostudiyalarga xizmat ko'rsatuvchi kinokonsern sifatida yo'lga qo'yilsin;

(g) Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi tomonidan o'tkaziladigan "Oltin Humo" milliy kino taqdimoti nufuzini oshirish maqsadida 2027-yildan boshlab har yili 5 milliard so'm ajratib berilishini ta'minlansin.

26. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq davlat buyurtmasi asosida kino, shu jumladan, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi loyihalari yaratilishida:

(a) marketing va reklama xarajatlari uchun film budjetining 30 foiz miqdorigacha mablag'larni ajratishga ruxsat beriladi;

(b) xarid shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish talabi bekor qilinadi;

(v) filmlar namoyishidan tushgan mablag'larning 50 foizi produser va ijodiy guruhga qo'shimcha rag'bat sifatida beriladi.

VII. Hududlarda madaniyat tadbirlarini tashkil etish va kitobxonlikni rivojlantirish

27. 2026-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahar, Samarqand va Namangan viloyatlari hokimliklari huzurida madaniy tadbirlarni tashkil etish direksiyalari (keyingi o'rinlarda – direksiyalar) faoliyatini yo'lga qo'yilsin.

28. Belgilansinki: (a) direksiyalar tegishli hokimliklar muassisligida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etiladi, boshqa tadbirkorlarga direksiya ustav fondiga o'z pul mablag'lari bilan ishtirok etishiga ruxsat beriladi;

(b) direksiyalar tegishli hududda joylashgan, madaniy, ommaviy, konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilishi mumkin bo'lgan binolar, majmualar, pavilyonlar, stadionlar, sahnalar, zallarga (keyingi o'rinlarda – madaniyat obyektlari) ega bo'lgan barcha davlat muassasalari, shu jumladan, konsert, teatr, madaniyat saroylari bilan majburiy ravishda, shunday bino va inshootlarga ega xususiy tashkilotlar bilan esa o'zaro kelishuvlar asosida xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnomalar imzolaydi;

(v) direksiyalar tuzilgan shartnomalar asosida har bir madaniyat obyektingan har kunlik ish rejimi, ularning band va bo'sh vaqtlari haqida onlayn rejimda ma'lumot olib turadi;

(g) direksiyalar madaniyat obyektlarining bo'sh vaqtdan samarali foydalanish maqsadida ularni madaniy tadbirlar o'tkazilishini tashkil etadi, o'zi jalb qilgan tadbir tashkilotchilari bilan madaniy maskanlarning mulkdorlari nomidan shartnomalar tuzadi;

(d) direksiyalar tomonidan mulkdor nomidan tuzilgan shartnomalarga asosan madaniyat obyektlarini tadbirlar uchun ijaraga berishdan tushgan mablag'larning xizmat ko'rsatish shartnomasida tomonlar o'zaro kelishuv asosida belgilaydigan qismi direksiyalarga o'tkazib beriladi;

(j) direksiyalar o'zlari tuzgan shartnoma asosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarga ruxsat olish bo'yicha tartib-taomillarning bajarilishini bevosita o'zi ta'minlaydi.

29. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Madaniyat vazirligining takliflari asosida 2026-yil yakuniga qadar 50 tadan 100 tagacha chekka va olis hududlardagi mahallalarda namunali mahalla kutubxonasi va kitob do'konlarini tashkil qilsin. Bunda Yoshlar ishlari agentligi:

(a) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda namunali mahalla kutubxonalarining badiiy, ilmiy-ommabop, ma'rifiy, hujjatli va biografik adabiyotlar bilan to'ldirilishini;

(b) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi bilan birgalikda ushbu kutubxonalar faoliyati to'liq raqamlashtirilishini ta'minlansin.

2027-yil 1-yanvardan boshlab ushbu kutubxonalarda "Mutolaa" platformasidan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilsin.

30. 2026-yil 1-iyuldan boshlab Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat akademik musiqali teatri va O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berilsin.

VIII. Ta'lim tizimini takomillashtirish

31. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 10 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, tajriba tariqasida, musiqa, tasviriy san'at va texnologiya darslarini ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq "Art" o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan holda o'qitish yo'lga qo'yilsin. Bunda umumiy o'rta ta'lim

muassasalarini "Art" yo'nalishlariga mos holda jibozlash xarajatlari mahalliy budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32. Belgilansinki, 2026/2027-o'quv yilidan boshlab:

(a) bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari mehnatiga haq to'lash miqdorlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdorlariga tenglashtiriladi;

(b) umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchilari ish haqiga o'quvchilarning cholg'ularni ijro etishi darajasidan kelib chiqib, har oyda 20 foizgacha ustama to'lash tartibi joriy etiladi;

(v) bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashgan maktablar bilan umumiy ta'lim muassasalari o'rtasida ijodiy hamkorlik yo'lga qo'yiladi hamda ijodiy jamoalar tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida davriy ravishda konsert-tomosha dasturlari va mahorat darslari o'tkazib boriladi;

(g) har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida musiqa va san'at yo'nalishida kamida 4 tadan to'garak tashkil qilinadi.

33. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya ikki oy muddatda yosh ijodkorlarning startap loyihalari bilan qo'llab-quvvatlash uchun madaniyat va san'at yo'nalishidagi 10 ta oliy ta'lim muassasasiga Davlat budjeti va Oliy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 50 milliard so'm ajratilishini ta'minlansin.

34. Kasbiy ta'lim agentligi tizimidagi Respublika musiqa va san'at texnikumi hamda Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk texnikumi oliy maktab sifatida qayta nomlangan holda Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazilsin, bunda Respublika musiqa va san'at oliy maktabi hamda Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk oliy maktabida:

(a) bitiruvchilarga kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi;

(b) iqtidorli bitiruvchilarga belgilangan tartibda o'z o'qishini tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarining ikkinchi bosqichidan davom ettirish imkoniyati yaratiladi;

(v) talabalarga taniqli ijodkorlar birkitiriladi va ularga oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchisiga teng miqdorda mehnatga haq to'lash shartlari qo'llanadi.

35. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi negizida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'at xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil qilsin.

IX. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

36. Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

38. Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

Mahalliy korxonalarda 60 dan ziyod turdagi yuqori qo‘shilgan qiymatli yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Buning uchun zarur xomashyo bazasi yaratildi. Natijada sohada eksport 3 karra o‘tdi, ishchilar soni 50 mingdan oshdi.

# ILM-FAN BILAN TARAQQIYOTGA YUZ TUTAYOTGAN YANGI AVLOD SANOAAT KORXONALARI

## Boshlanishi 1-betda

Mahsulotlar ham zamonga mos. Ya'ni sifati, mustahkam hamda tashqi muhit ta'siriga chidamli. Shu bois, ularning xaridori aniq. Qurilish, avtomobilsozlik, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati ishlab chiqaruvchilari — asosiy buyurtmchilar.

Korxonada tarkibida zamonaviy tadqiqot markazi ham faoliyat yuritmoqda. Markazda jahon bozori talablaridan kelib chiqib, termoplastlarning yangi retsepturalari ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, tayyor granularlar, zichlagichlar va yuqori bosimli shlanglar xalqaro standartlar asosida sinovdan o'tkaziladi.

Ayni paytda korxonada 58 kishi doimiy ish bilan band. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, bu yerda 103 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 5 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Ushbu korxonada ham import borasida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu yerda bir yilda 8,5 million dollarlik import o'rni bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib foyda keltirdi.

Kelgusida korxonada mahsulot ishlab chiqarish qiymati 177 milliard so'mga, eksport ulushi esa 60 foizga yetkaziladi. Bu rejalar korxonada jamoasining mahalliy bozordan chiqib, Markaziy Osiyo va boshqa tashqi bozorlarda ham o'z mavqini yanada mustahkamlashiga zamin yaratadi.

“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkidagi “BCG Group OZ” korxonasi ham alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari ushbu korxonaga faoliyatini bilan ham tanishdi. Mazkur korxonada — hayotiy zarurat mevasi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan maishiy kimyo va avtomobillar uchun mo'ljallangan vositalarga bugun talab yuqori. E'tiborlisi, korxonada faoliyat boshlaguncha bu turdagi mahsulotlar xorijdan sotib olinardi. Endi esa ular ichki ehtiyojdan ortib, yonatrofimdagi davlatlarga ham eksport qilinmoqda.

— Chindan ham ushbu mahsulotlarga

talab tobora ortib bormoqda, buyurtma ko'p, — deydi korxonada bosh muhandisi Suhrob Muxotov. — Shu bois, ishimizni smenali tarzda tashkil etganmiz. Ishchilar qabul qilinishdan oldin maxsus kurslarda o'qitiladi, ya'ni ish o'rgatiladi. Yangi ishchilar tajribali xodimlarga birlashtiriladi. Bu ish unumdorligi oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Umumiy qiymati 6 million dollarlik loyiha doirasida rossiyalik hamkor bilan tashkil etilgan korxonada 80 dan ziyod kishi mehnat qilmoqda. Ularning aksariyati yaqin-atrofga yashovchi yoshlar. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi ham 80 dan ortiq.

Korxonada o'tgan yili 176 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2,6 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Mahsulotlarning sifati milliy va xalqaro standartlar, xususan, ISO 9001, “Halol” hamda MDH davlatlari sertifikatlari bilan tasdiqlangan.

Ishlab chiqarish jarayonida sifat nazorati xomashyodan boshlab, tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Laboratoriyada xomashyoning texnik talablariga muvofiqligi, mahsulotning qovushqoqligi, pH ko'rsatkichi, zichligi va samaradorligi tekshiriladi. Korxonada kelgusida ishlab chiqarish qiymatini 294 milliard so'mga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari bu kabi ishlab chiqarishlar mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim ekanini ta'kidladi.

Shu yerda Prezidentimizga texnopark faoliyatini, shuningdek, kimyo sanoatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalarni taqdimot qilindi.

Bugun mineral o'g'itlar ishlab chiqarish agrar sektor barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Yiliga 3,7 million tonna o'g'it ishlab chiqarilayotgan bo'lsa-da, import qilinayotgan fosforli va suvda eruvchan o'g'itlarga talab tarmoqni yanada modernizatsiyalashni taqozo etmoqda. Bu borada 2,8 milliard dollarlik investitsiya loyihalari ishlab chiqilgan.

Neft-kimyo tarmoq'ida esa polimerlarga ichki ehtiyoj ortib bormoqda. 2032-yilga borib,

mazkur ehtiyoj 3,2 million tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda. Angrenda “Ko'mirdan olefinlar olish” va Qo'ng'irotda “Naftani qayta ishlash” kabi yirik loyihalarning amalga oshirilishi ushbu talabni to'liq qondirish va import o'rini bosishga xizmat qiladi.

Maishiy kimyo sohasida ham tizimli ishlar bajarilmoqda. Investitsiya loyihalari orqali import hajmini ikki barobar qisqartirish, ichki iste'molni mahalliy mahsulotlar hisobiga 64 foizgacha yetkazish va eksport ko'rsatkichlarini oshirish ko'zda tutilgan.

Shundan so'ng “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkida Prezidentimiz raisligida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Iqtisodiyotimiz jadal rivojlanib, so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarida 3000 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'liga qo'yilgan ta'kidlandi.

Ochig'i, bundan 9-10 yil avval mamlakatimizda kimyo mahsulotlarining asosiy qismini mineral o'g'itlar tashkil qilgan. Ya'ni ko'pchilik kimyo sanoati, deyilsa, mineral o'g'itlarni tushunardi. Vaholanki, zamon shiddatkor, barcha soha rivojlanish, texnika, texnologiya taraqqiyot bosqichida. Bunday sharoitda birgina yo'nalishga bog'lanib qolish qo'lashtiradi. Shu bois, keyingi yillarda sohaga 8 milliard 300 million dollar investitsiya kiritilib, 87 ta yirik quvvat ishga tushirildi.

Mahalliy korxonalarda 60 dan ziyod turdagi yuqori qo'shilgan qiymatli yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Buning uchun zarur xomashyo bazasi yaratildi. Natijada sohada eksport 3 karra o'sdi, ishchilar soni 50 mingdan oshdi.

Taraqqiyot biror sohani chetlab o'tmaydi. Rivojlanishga moslashish, yangilikka intilish va unani amalga oshirish o'zlashtirildi. Buning uchun zarur xomashyo bazasi yaratildi. Natijada sohada eksport 3 karra o'sdi, ishchilar soni 50 mingdan oshdi.

3 foizga ham yetmagan. Kimyo mahsulotlari importi 4 barobar oshib, yiliga 4,5 milliard dollarga yetgan.

“O'zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati asosan o'z tizimidagi yirik korxonalar bilan cheklanib qolayotgani, sohadagi 5000 dan ortiq korxonalar bilan tizimli ishlab, ularning muammo va takliflarini eshitish sustligi ko'rsatib o'tildi.

Mamlakatimizda yiliga 1,5 million tonna ammiakli selitra ishlab chiqarilib, bunga 1 milliard 70 million kub metr gaz sarflanmoqda. Shu bilan birga, ilg'or davlatlar selitra iste'molini kamaytirib, qishloq xo'jaligida karbamid va suvda eruvchan o'g'itlar, tog'-kon sanoatida esa g'ovaksimon selitradan foydalanishga o'tmoqda.

Ammiakli selitra bilan tannarxi bir xil bo'lgan g'ovaksimon selitradan qo'shilgan qiymat 2 barobar yuqori. Mutasaddilar va kimyo korxonalari rahbarlari bunday loyihalarni ko'paytirish haqida jiddiy o'ylashni kerakligi qayd etildi.

Shuningdek, “Navoiyazor”da ishlab chiqarilayotgan 1 tonna sian tuzining narxi 3700 dollar bo'lsa, undan yelim ishlab chiqarilsa, qiymati 8000 dollargacha oshishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Mas'ullarga “Navoiyazor” yonidagi klasterda 1 milliard dollarlik 10 ta kam tonnali kimyo loyihasini boshlash topshirildi.

Geologiyada zaxiralarni to'liq ishga solish orqali ham qo'shilgan qiymatni bir necha barobar oshirish mumkinligi ta'kidlandi.

Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Qashqadaryo va Navoiyda 550 million tonna natry va kaliy, 20 million tonna bentonit zaxirasi bor. Ushbu xomashyo chuqur qayta ishlab, kaustik soda ishlab chiqarilsa, qo'shilgan qiymat 3 barobar oshadi.

Jizzaxda 1,5 million tonna, Qoraqalpog'istonda 500 ming tonna serpentin zaxirasi aniqlangan. Unga sulfat kislotasi bilan ishlov berilsa, tonnasi 5000 dollargacha bo'lgan magniy oksidi olish mumkin. Serpentin yanada chuqur qayta ishlanisa, nikel, xrom va kobalt olish imkoniyati

paydo bo'ladi. Bu esa elektrotexnika sanoati uchun muhim xomashyo.

Mutasaddilarga fosforit, galit, mirabilit, serpentin kabi kimyo sanoati uchun zarur xomashyo zaxiralarni 2 barobar oshirish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqib, amaliy ishlab boshlash topshirildi. Serpentin xomashyosini qayta ishlash bo'yicha kamida 200 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Mamlakatimizga yiliga 300 million dollarlik maishiy kimyo mahsulotlari import qilinmoqda. Mintaqada esa bunday mahsulotlar uchun 2 milliard dollarlik bozor mavjud. Misol uchun, “Angren” erkin iqtisodiy zonasidagi tadbirkor dunyoga mashhur “Henkel” kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hozir ushbu korxonani “Henkel” sotib olgan bo'lib, bu yerdan MDH davlatlariga mahsulot yetkazib berish rejalashtirilmoqda.

Bunday loyihalarni ko'paytirish maqsadida poytaxtdagi sanoat zonalaridan biridagi maydonlar maishiy kimyo loyihalari uchun ajratiladi. Ishga tushirilgan korxonalarni brendi bilan birga tayyor daromadli biznes sifatida xususiy sektorga sotish sharti bilan ushbu yo'nalishga 50 million dollar yo'naltiriladi.

Boshqa viloyatlardagi bunday loyihalar uchun Sanoat kooperatsiyasi jam'arimasidan 15 million dollar ajratiladi. Umuman, mutasaddilarga maishiy kimyo kamida 100 ta yangi brenddagi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilishda mineral o'g'itlar bozoridagi imkoniyatlar ham tahlil qilindi.

Dunyoda mineral o'g'itlarga talab yiliga 5 foizdan o'smoqda va 2030-yilda 260 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Ayniqsa, yangi agrotexnologiyalar hisobiga suvda eruvchan o'g'itlarga ehtiyoj keskin ortib bormoqda.

Kelgusi uch yilda soha mas'ullari va hokimlar oldida 2 milliard 800 million dollarlik 42 ta loyihani ishga tushirish vazifasi turibdi. Bu orqali 2030-yilga borib,

azotli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmini 2,8 million tonnadan 4 million tonnaga, fosforli o'g'itlarni 400 ming tonnadan 900 ming tonnaga, suvda eruvchan o'g'itlarni 100 ming tonnadan 400 ming tonnaga yetkazish muhimligi ta'kidlandi.

Suvda eruvchan o'g'itlar, polimerlar, maishiy va noorganik kimyo bo'yicha rejalashtirilgan yirik loyihalarni hisobidan nanokimyo, “yashil” kimyo, supermolekulyar kimyo, sun'iy intellekt asosida kimyoviy modellashirish kabi zamonaviy yo'nalishlarda kadrlarga talab ortishi ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan kimyo sanoatida ta'lim, tadqiqot, laboratoriya va startaplarni qamrab olgan yaxlit tizim yaratilishi belgilandi.

Umuman, kimyo sanoatida 17 milliard dollarlik 350 dan ziyod loyihani ishga tushirish bo'yicha dastur ishlab chiqib, amaliy ishlarni boshlash topshirildi.

Davlatimiz rahbari ushbu katta marralarga erishish uchun sohani ilmiy va zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish zarurligini ta'kidladi hamda “O'zkiyosanoat”ni transformatsiya qilish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda kimyo sanoati mas'ullari va hududlar rahbarlarining hisoboti tinglandi, tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar rahbarlari bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Prezidentimizning “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkiga tashrif davomida kimyo sanoatidagi ishlar yana bir bor tahlil qilindi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan kelgusi rejalarni uchun muhim bosqichni boshlab berdi.

Mazkur tarmoqqa e'tibor importga qaramlikni kamaytiradi, eksport orqali davlatga valyuta tushumini ko'paytiradi. Birlamchi xomashyolardan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Bular iqtisodiyot barqarorligi va aholi farovonligi uchun muhim jihatlardir.

Dilshod ULUG'MURODOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## Munosabat

# YUKSAK ISHONCH BALAND MARRALAR SARI BOSHLAYDI

# IJOD UCHUN ILHOM MANBAI

**Raisa ABDULLAYEVA,**  
Jizzax viloyati musiqali drama teatri artisti,  
“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi

Shu kunlarda mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida ro'y bergan juda katta yangilanish shukhi bilan yashayapmiz. Prezidentimizning “Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi farmoni sohaning ko'plab fidoyi insonlari qadrini ko'tardi. O'tganlarning yorqin xotirasi ulug'landi. Mazkur quvonchini hazm qilishga ulgurmay, yana bir katta voqea bo'ldi. Xususan, davlatimiz rahbari 1-iyun kuni soha xodimlari bilan muloqot qilib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi, mislsiz imkoniyat va imtiyozlar eshigini ochib berdi. Ularni birma-bir sanab ado qilib bo'lmaydi.



Prezidentimiz farmoniga binoan “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandim. Bu haqidagi xabarini eshitganimda vujudimda kuchli hayajon va shukronalikni his qildim. Avval hamkasblarim qo'ng'iroq qilib tabriklandi. Keyin qarindoshlar, do'stlar va tanishlarimdan qudovlar yog'ila boshladi. Viloyat hokimligida davlatimiz rahbari nomidan mukofotni qabul qilib olar ekanman, ko'nglimdan juda ko'p fikrlar o'tdi. Sahnada o'tayotgan umrim, izlanish va mehnatlarimiz beiz ketmabdi deya o'yladim. Viloyatda yashab ijod qilayotgan biz kabi ijodkorlar ham Prezidentimiz e'tiborida ekanidan quvondik. Inson qadri ulug'langan yurtda boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, aslida.

Ushbu mukofot meni bag'riga olib ulg'aytirgan, ijod maktabi bo'lgan butun Jizzax viloyati musiqali drama teatri jamoasi mehnatiga berilgan yuksak bahodir. Chunki teatr bir insonning emas, bir butun jamoaning, hamfikr va hamnafas qablarning san'atidir. Sahnada ortida tunlarni kunga ulab, ko'rinmas zahmat

chekayotgan rejissyor, musiqachi, rassom va texnik xodimlar mehnati birlashib, keyin zaldagi tomoshabinning gulduros olqishiga aylanadi. Teatrni yaxshi ko'rib, hozirgacha yuzdan ortiq rol ijro etdim. Ularning har biri bilan birga yashadim, birga yig'lab, birga kuldim. Har bir obrazning o'z dunyosi, o'z qadri bor. Ba'zan salbiy qahramonni o'ynaysan, ba'zan mehribon ona obrazini. Masalan, hozir sahnalashirayotgan “To'ylar muborak” spektaklida Kimyo xola obrazini, “Hayrat ul-abror” asarida esa ona rolini ijro etaman. Ammo ularning barchasini bir maqsad birlashtiradi — inson qalbiga ezgulik urug'ini sochish.

Mamlakatimizda san'at ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborni ko'rib, har bir ijodkorning qalbiga beixtiyor faxr tuyg'usi uyg'onadi. Prezidentimiz ishtirokida madaniyat va san'at sohasi xodimlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda bildirilgan fikr va tashabbuslar barchamizga katta ruhiy kuch bag'ishladi. Hech shubhasiz, muloqotda ta'kidlanidek, bitta yaxshi asar millatning ruhini ko'taradi. Birgina spektakl jamiyat

tafakkurini uyg'otib, kinodagi bir obraz butun avlodning qarashini o'zgartira oladi. Mana shunday ishonch har bir teatr xodimi va ijod ahli uchun dasturulamaldir.

Uchrashuvda teatr va san'at sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bildirilgan tashabbuslar ijodkorlarga kuchli ishonch berdi. Yosh iste'dodlarni rag'batlantirish, ijodkorlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, teatrlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan fikrlar mamlakatimizda madaniyat va san'at rivojiga yangi nafas berishi shubhasiz.

Prezidentimizning uchrashuvda kuyunchaklik bilan aytgan har bir so'zi yuragimdan joy oldi. San'atimizning eng og'riqli nuqtalari ochiq-oydin aytildi. “Ba'zan bizda milliy ruh yetishmaganday bo'lyapti. Sahnada asarlari bor, lekin kuchli ta'siri yo'q. Qo'shiqda ovoz bor, lekin xalqning o'tkir nafari sezilmayapti. Kinoda harakat bor, lekin xalqning dardi, g'ururi va xarakteri ko'rinmayapti. Ba'zi asarlarda shakl bor, lekin katta g'oya yo'q. Milliy o'chigimiz va ruhiyatimizni ifodalash uchun ijod va san'atdan ta'sirlanib va kuchliroq vosita yo'q, desam fikrimga qo'shilasizlar”, degan so'zlar barchamizni chuqur mushohada qilishga undadi.

Haqiqatan, bugun bizga shunchaki sahnani to'ldiradigan tomosha emas, balki millatning asl qiyofasini, boy tarixi va bugungi yutuqlarini bor bo'yicha ko'rsata oladigan jonli asarlar kerak. Bu borada bizga katta ishonch bildirildi. Ana shu ishonchning o'ziyoq biz — ijod ahli, san'atkorlarga kuchli rag'bat bo'ldi. Biz mana shu yuksak ishonchga munosib bo'lishimiz, sahnada yaratajakk har bir obrazimiz orqali tomoshabin qalbiga Vatan tuyg'usini alangalatishimiz shart.

Bugun yurtimiz tinch, osmonimiz masuffo, xalqimiz farovon hayot kechirmoqda. Ana shunday fayzli muhitda ijod qilishning gashit boshqacha. Berilgan mukofotlar, yangi imkoniyat va imtiyozlar bizga mana shu sururni yanada teran his etib ijod qilishimizga turki bo'ldi.

**G'iyos BOYTAYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
xalq artisti

Sahnada o'tkazgan yillarim, ijro etgan qo'shiqlarim hayotimning eng go'zal va mazmunli sahifalarini tashkil etadi. Davlatimiz tomonidan yuksak unvon bilan taqdirlanish esa umr daftarimga muhrlangan unutilmas va sharaffi voqea, ijodim uchun yangi qanot, yangi ilhom manbai bo'ldi.



Avvalo, biz kabi ijodkorlarning kamtarona mehnatini yuksak baholab, ushbu ulug' maqomga munosib ko'rgan Prezidentimizga o'zim va oilam nomidan chuqur minnatdorlik

izhor etaman. Rostini aytsam, bu e'tirofni faqat o'zinga emas, balki qo'shiqlarimni sevib tinglagan bag'rikeng va mehribon xalqimizga berilgan yuksak baho deb bilaman.

# ONA YURT DEB MAYDONGA CHIQUISH MAS'ULIYATI

**Bayramali QO'LDOSHEV,**  
“Shuhrat” medali sohibi, yozuvchi

Haqiqiy ijod, nazarimda, eng kamtar tuyg'uv. U hamisha ham o'zi uchun maqtovt kutmaydi, izzat talab qilavermaydi. Aksincha, o'zini panaga tortadi. Gavjum davralardan, nafsga yoqadigan hashamlardan qochadi. Faqat go'zallik bilan, fikr va ma'no bilan ko'zga tashlanishni istaydi.

Faqat oq sut bergan onasini, tetapoya qilganida tanasidagi ilk jarohatlarga davo bo'lgan tuprog'ini, o'zini undirib-o'stirgan, bolam deb ardoqlagan elini, ulusini rozi qilish uchun maydonga chiqadi. Ming bukilib, ming bir to'kilib ularni bosh qadro ko'tarsam, yuksaltirsam, aziz qilsam deydi. Menga emas, ularga bo'lsin deydi. Men emas, ular deydi.



Shunga qaramay, 28-may kuni yuksak mukofotlarga munosib ko'rilgan ko'plab san'at va madaniyat xodimlarining nomi orasida o'z ismimni ko'rish menga behad baxtiyorlik berdi. Buni so'z bilan ta'riflash, hatto menday umri so'zlar orasida o'tayotgan odam uchun ham mushkul bo'lsa kerak. Axir, hazilakam gapmi?! Bu sening faoliyatigini shaxsan davlat rahbarining o'zi

kuzatib turibdi degani-ku?! Bu otalarcha mag'rur bir nigohdagi “bo'shshama, bo'sh kelma, kimlarning ma'naviy merosxo'ri ekanimizni butun dunyoga isbotlamasdan qo'ymaymiz!” degan mazmun, qutlug' rag'bat-ku?!

Nomim mukofotlanganlar ro'yxatida e'lon qilganini eshitganimda poytaxtdan endigina qishloqqa kelgandim. Nafas rostlaganday bo'ldim-u, shu zahoti poytaxtga qaytdim. Medalni qabul qilib olgach, darrov yana qishloqqa o'tlandim. Kelib, umri qora mehnatda o'tgan, ona qishlog'imizdagi hamma eski uyning paxsasini o'zi urib, tomini o'zi yopgan sakson yoshli otamning ko'ksiga medalni taqib qo'ydim. Medalning Prezidentimiz imzo qo'ygan guvohnomasini qo'lga tutqazdim. Otam yelkamga qo'di, nimadir deb picirladi va shu asno ko'zlaridan ikki tomchi sevinch yoshi dumalab ketdi. Ko'zoynak so'radi. So'ng ne bir hayajon, ne bir o'kinch bilan Prezidentimizning imzosiga uzoq termulib qoldi. Shu turishda xuddi davlatimiz rahbarining qo'llaridan tutib turgana o'xshardi...

Ona yurtimga o'zimiz shunday yuksak, faxrli mukofotga loyiq ko'rgan uchun, men orqali otamni, onamni bu qadar e'zozlagan, farzandlarimni qadrligani uchun chin qalbdan minnatdorlik bildiraman va bir ijodkor sifatida millat hayotidagi oliy vazifamni aslo unutmayman.

**Ikki yilda korxonalar tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulot eksport qilinib, avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni mamlakatning o'zida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.**



**2026-yil 3-iyun, 111-son**

**USHB MAQOLANI QORAQLAQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

**Sharh**

2021-yildan O'zbekistonda davlat va biznes munosabatlarida mutlaqo yangi siyosiy-iqtisodiy format shakllandi. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti shunchaki rasmiy yig'ilish emas, balki biznes muhitidagi muammolarni to'g'ri riddan to'g'ri eshittirish, tezkor qaror qabul qilish va iqtisodiy islohotlarni "joylardagi ehtiyoj" asosida shakllantirish mexanizmi aylandi.

**“OCHIQ MULOQOT” FENOMENI: BESH YILDA TADBIRKORLAR OVOZI DAVLAT SIYOSATIGA QANDAY TA'SIR QILDI?**

yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshganini tasdiqlagan mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning muhim belgisi bo'ldi.

2024-yilgi muloqotda yana bir muhim tendensiya kuzatildi — davlat tadbirkorlarni tekshirish emas, qo'llab-quvvatlash orqali soliq tushumlarini oshirish imkonligini tan oldi. Prezidentimiz "Tekshirsa — qo'rqadi, qo'rqsasa — soliq to'laydi" degan eski qarash o'zini oqlaganini ta'kidladi.

Natijada "A" va "B" — yaxshi toifaga kiruvchi korxonalar soni 91 mingga ko'paydi, soliq tekshiruvlari esa ikki baravar qisqardi. Shu bilan birga, xususiy sektorda 5 million so'mdan yuqori maosh oladiganlar soni 1 milliondan oshdi.

2025-yilgi ochiq muloqot esa raqamli iqtisodiyot va "soya" iqtisodiyotini qisqartirishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Prezidentimizning ta'kidlashicha, so'nggi sakkiz yilda iqtisodiyotga 230 milliard dollar investitsiya jalb qilingan bo'lib, shundan 120 milliarddan ortig'i xorijiy sarmoyadir. 2025-yilda iqtisodiyot 7,7 foiz o'sgani ham islohotlar samarasini ko'rsatadi.

Eng diqqatga sazovor jihat — ochiq muloqotlar endi faqat muammo eshittirish maydoni emas, balki raqamli davlat va raqamli biznes ekotizimini shakllantirishga aylanmoqda. Masalan, 2030-yilgacha yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilinganlar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etilishi, elektron platformalar orqali xizmat ko'rsatish va universal QR-kod tizimini ishga tushirish rejalashtiriladi.

E'tiborlisi, 2021-yildan buyon tadbirkorlar ilgari surgan qariyb 1000 tashabbus qonun va qarorlarda o'z aksini topdi. Bu esa ochiq muloqotlar formal tadbir emas, balki davlat qarorlarini qabul qilishning amaliy mexanizmi aylanganini anglatadi.

So'nggi besh yildagi ochiq muloqotlar O'zbekistonda davlat va biznes munosabatlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Tadbirkorlar endi faqat soliq to'lovchi emas, balki iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ishtirok etuvchi muhim subyektlar. Eng muhimi, mazkur muloqotlar iqtisodiyotni real bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqarish imkonligini namoyon qildi.

**Jamshid SHARIPOV, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bo'lim boshlig'i**

Ilk ochiq muloqot pandemiyadan keyingi og'ir iqtisodiy sharoitda o'tkazildi. O'sha davrda tadbirkorlardan 15 mingdan ortiq murojaat kelib tushgani biznesda yig'ilib qolgan tizimli muammolar qanchalik katta ekanini ko'rsatgan edi. Eng muhimi, davlatimiz rahbari birinchi

marta tadbirkorlarni "iqtisodiy lokomotivi" sifatida baholab, ular bilan to'g'ri riddan to'g'ri muloqot qilish amaliyotini joriy etdi. Bu esa davlat idoralari va biznes o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ilgari tadbirkor asosan nazorat obyekti sifatida ko'rilgan bo'lsa, endi u iqtisodiy o'shishning asosiy drayveriga aylandi.

2021-yilgi muloqotda kredit muddatlari, yuqori foizlar, valyuta xavflari, ortiqcha tekshiruvlar va litsenziyalash tizimi kabi dolzarb masalalar ko'tarildi. Natijada bank kapitalini oshirish, xususiy banklarga keng imkoniyat berish va xalqaro moliya resurslarini jalb qilish bo'yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqildi.

2022-yilga kelib, ochiq muloqotlar allaqachon iqtisodiy siyosatni belgilaydigan muhim maydonga aylandi. O'sha yilgi uchrashuvda biznesni mikro, kichik va o'rta toifalarga ajratish tizimi joriy qilindi. Bu qaror iqtisodiyotni "bir xil yondashuv" asosida boshqarishdan voz kechib, tadbirkorlarning imkoniyati va ehtiyojiga qarab ishlab chiqarish tizimiga o'tishning boshlanishi bo'ldi.

Ayniqsa, mikrobiznes uchun yagona 4 foizli aylanma solig'i joriy etilishi, QQS stavkasi 12 foizga tushirilishi va 2 trilion so'mlik soliq

qarzlarning bekor qilinishi tadbirkorlar uchun katta yengillik bo'ldi.

Bu o'zgarishlar raqamlarda ham yaqqol namoyon bo'ldi. 2022-yilda eksport qiluvchi korxonalar soni 7500 taga yetdi. Umumiy eksport hajmi esa 30 foiz oshdi. Bu esa biznesga berilgan erkinlik va moliyaviy yengilliklar iqtisodiy faolligni kuchaytirganini ko'rsatadi.

2023-yilgi ochiq muloqot tadbirkorlik siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Prezidentimiz ilk bor "Yangi O'zbekistonda yangi tadbirkorlar sinfi shakllandi", deya ishlab chiqarish faolligiga siyosiy baho berdi. Bu davrda davlat va biznes munosabatlarida ishonch muhiti sezilarli darajada kuchaydi. Xususan, tekshiruvlar 40 foiz qisqardi. Kameral jarimalar bekor qilindi va QQSni qaytarish mexanizmi ancha tezlashdi.

Eng muhimi, 2021-2022-yillarda ilgari surilgan tashabbuslar real iqtisodiy natija bera boshladi. Xususan, ikki yilda korxonalar tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulot eksport qilinib, avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni mamlakatning o'zida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2024-yilga kelib, ochiq muloqotlar nafaqat biznes muammolarini hal qilish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik mexanizmga aylandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekiston

2024-yilgi ochiq muloqotlar nafaqat biznes muammolarini hal qilish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik mexanizmga aylandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekiston

2024-yilgi ochiq muloqotlar nafaqat biznes muammolarini hal qilish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik mexanizmga aylandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekiston

## BOZOR TAMOYILLARIGA MOSLASHAYOTGAN ENERGETIK TARIFLAR

Mamlakatimizda keyingi yillarda elektr energiyasi va tabiiy gazga talab keskin oshib bormoqda. Bu, avvalo, aholi soni ko'payishi, iqtisodiyot o'sishi va odamlar turmush tarzi o'zgarishi bilan bog'liq.

### Nuqtayi nazar

Bugungi xonadonni 20-30 yil avvalgi uy bilan taqqoslab bo'lmaydi. Ilgari bir uyda bir televizor, bir muzlatkich va bir necha chiroq bo'lgan, hozirda deyarli har xonadonda konditsioner, kompyuter, kir yuvish mashinasi, mikroto'qinli pech va o'nlab elektron qurollar ishlatiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida yangi xonadonlar soni ko'payib, yuz minglab uy-joylar qurildi, mahallalar paydo bo'ldi. Tabiiyki, bularning barchasi elektr va gazga ehtiyojning bir necha barobar oshishiga olib keldi. Agar 2016-yilda 45,7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qilingan bo'lsa, 2025-yilga kelib qariyb 71 milliard kilovatt-soatga yetadi. Bu qisqa vaqt ichida juda katta o'sish degani.

Infratuzilma talabga mos bo'lishi kerak. Lekin yurtimizdagi elektr tarmoqlari va transformatorlarning katta qismi 40-50 yil avval qurilgan. Yozning jazirama issiq kunlari yoki qishning qattiq sovuq pallaslarida uzilishlar elektr taqchilligidan emas, balki mavjud elektr tarmoqlarining qariyb yarmi eskirgan holatda ekanidanir.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, tarmoqlarning eskirgan sababli elektr energiyasining 15-20 foizi manzilga yetmasdan yo'qotiladi. Bu esa har yili millionlab xonadonlarni bir necha oy ta'minlashga yetarli milliardlab kilovatt-soat energiya bekorga sarf bo'layotganini anglatadi. Eng achinarlisi, bu yo'qotishlar ortiqcha mablag' sarflanishiga olib kelmoqda. Agar tarmoqlar yangilanmasa, ertaga uzilishlar yanada ko'payishi mumkin.

Shuning uchun energetika tizimini tubdan yangilashga kirishildi. So'nggi yillarda minglab kilometr elektr uzatish tarmoqlari va gaz quvurlari yangilanib, podstantsiyalar qurildi, zamonaviy elektr stansiyalari ishga tushirildi. Birgina keyingi besh yilda sohani modernizatsiyalash uchun 20 milliard dollardan ortiq mablag' sarflandi.

Avvalgi yillarda elektr energiyasi va gaz aholiga tanbarandacha ancha arzon narxda yetkazib berildi. Masalan, 2024-yilgacha elektr energiyasining ayrim tariflari uni ishlab



**Rahmatillo SHUKUROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

chiqarish tannaxirining hatto uchdan bir qismini ham qoplamagan. Lekin aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida yillar davomida davlat byudjetidan katta subsidiya ajratib kelindi. Ammo bu iqtisodiy qonuniyatga mos natija ko'rsatdi — agar mahsulot tannaxiridan arzon sotilsa, sohada rivojlanish bo'lmaydi. Natijada tizimga sarmoya kiritish imkoniyati cheklanib, o'tgan davr mobaynida qator muammolar to'planib qolishiga olib keldi.

Bu boradagi eng muhim jihat, ajratilgan subsidiyadan kam ta'minlangan oila ham, yuzlab kilovatt elektr sarflaydigan katta hovli egalari ham bir xil foydalanadilar. Oqibatda davlat yordamining katta qismi, ya'ni arzon tarifdagi energiya moddiy jihatdan o'ziga to'q qatlam vakillariga sarflandi.

Endilikda ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida dunyo amaliyotida keng qo'llanadigan adolati mexanizmdan foydalanib, "ijtimoiy norma" tizimi joriy etilmoqda. Ya'ni belgilangan me'yor doirasida iste'mol qilgan aholi uchun tariflar nisbatan arzon saqlab qolinmoqda, ko'proq energiya sarflaganlar esa yuqoriroq narx to'laydi.

2026-yil 1-iyundan boshlab elektr energiyasi va gaz tariflari 10 foizga indeksatsiya qilindi. Bu inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Ya'ni oyiga 200 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlatadigan oila uchun

qo'shimcha xarajat o'rta 10 ming so'mni tashkil etadi. Gaz bo'yicha esa isitish mavsumida o'rta 50 ming so'm atrofida qo'shimcha to'lov yuzaga keladi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz qarori bilan 2027-yil 1-aprelga qadar Ijtimoiy reyestrqa kiritilgan, shuningdek, reyestrqa kiritilmagan, biroq moddiy ahvoli bo'yicha "davlat ta'minotidagi oila" yoki "kambag'al oila" toifadagi oilalar mezonlariga to'g'ri keluvchi, oiladagi jon boshiga daromadi minimal iste'mol xarajatlarning 1,5 barobaridan oshmaydigan oilalarga elektr energiyasi iste'moli bo'yicha oyiga bazaviy me'yordan 150 kilovatt-soatgacha, tabiiy gaz iste'moli bo'yicha isitish mavsumida oyiga bazaviy me'yordan 250 kub metrgacha, boshqa davrlarda oyiga bazaviy me'yordan 150 kub metrgacha ortiq foydalanilgan qismi uchun bazaviy me'yor doirasidagi hamma bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rta 10 ming so'm kompensatsiya qilib beriladi.

Shuningdek, isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamini qo'shimcha moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1 million so'mdan bir martalik moddiy yordam ajratish amaliyoti joriy etilgan.

Eng muhimi, bugungi islohotlarning asosiy maqsadi tarifni oshirish emas, balki energetika tizimini moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirish, uzilishlarni kamaytirish va aholini kelgusi o'n yillar davomida barqaror energiya bilan ta'minlashdir.

2030-yilgacha minglab kilometr yangi elektr tarmoqlari qurilishi, yirik podstantsiyalar ishga tushirilishi va texnik yo'qotishlarni keskin kamaytirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, quyosh va shamol elektr stansiyalari soni ham ortib borishi mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Energetika sohasidagi bugungi tarif siyosati qisqa muddatli emas, balki vaqtinchalik qiyinchilik evaziga ertangi barqarorlikka qaratilgan muhim strategik qarordir. Agar tarmoqlar yangilanmasa, investitsiya kiritilmasa va energiyatejamkor tizim yaratilmasa, kelajakda uzilishlar va taqchilik yanada kuchayib boraveradi. Shu nuqtayi nazardan, tariflarning bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o'tkazilishi iqtisodiy zarurat va barqaror taraqqiyot talabi hisoblanadi.

## ISHSIZLIK BARHAM TOPIB, KAMBAG'ALLIK CHEKINAYOTGAN MAHALLA

Yol chetida to'xtagan yo'lovchilardan kimdir tabiat manzarasini suratga muhrlashga oshiqqan. Boshqa birov yashilik bag'rida orom olish istagida. Bir oz narida ko'kalama o'tirgan ikki bolakayga ko'zimiz tushdi. Ularning qo'lida yarim non. Qovnoq ko'zi katta yo'lga tirmilgan. Qo'l silkitib, go'yo mehmonlarni qarshi oladi. Sal narida yoshi yetmishlar atrofidagi momo. Qo'lga urchug olib, gir aylantiradi. Yonidagi ayolga nimalaridir gapiryapti. Kino tasmasi kabi o'tib borayotgan tasvirlar bir-biridan qiziq...

Tuman markazidan bir oz o'tib, o'ngga burildik. Buyog'i qishloq yo'li. Saldan so'ng Qodir baxshi Rahimov mahallasiga kirib boramiz. Xayolimizga oldingi tosh-tuproqli ko'chalar keladi. Lekin hozir unday emas. Past-baland yo'l tekis asfalt qilingan. Oldingi tosh-tuproqdan darak yo'q. Chamasai yarim soatlarda manzilga kirib bordik. Mahalla raisi hasharga bosh bo'lib yurgan ekan. O'sha tomon yo'l oldik. Katta tepalikda bir guruh odam ishlayotgani ustidan chiqdik. Ular uzun quvurlarni o'rta tashlab, ustidan tuproq tortayotgan ekan. Keksalar bir chetda o'tirib, maslahat bermoqda.

— Ilgari mahallamizga ichimlik suv temir quvur orqali tortib kelingandi, — deydi mahalla raisi Abudusalim Egamshukurov. — Uch-to'rt yil foydalandik. Ammo vaqt o'tishi bilan quvurlar ishdan chiqdi. Bir amallab hozir

kovlab, suvni mashinada sotib olib keladigan bo'ldik. Bu holat 22 yil davom etdi. Lekin oson bo'lmadi. Bitta nihol ekolmadik. O'tgan yili dastur asosida mahallamizga e'tibor qaratildi. Quvurlar butunlay yangilanib, buloqdan suv olib berildi. Ko'p yillik orzumiz amalga oshdi. Mahalladoshlar mamnun bo'lganini aytmaymizmi! Baraka topishsin. Dastur asosida shu joygacha suv keltirib berishdi.

Tepalikdan yon-atrofdagi qishloqlarni kuzatamiz. Deyarli barcha tomorqaga ekin ekilgan. Ko'pgina hovlida daraxtlar bo'y ko'rsatib turibdi. Bu joyga ichimlik suv keltirilganiga bir yil bo'lgan. Oqova suv esa umuman yo'q. Bu natijaga qanday erishilgani qiziq edi.

— Avval to'rt-beshta yo'q-echki ortidan kun kechirardik. Boshqa imkon ham yo'q edida, — deydi mahalla faoli Abduraxim Rahimov. — Bundan yetti-sakkiz yil oldin xorijdan kelganlar kavrak o'zimgi bilan qiziqdi. Ba'zilar uni dorivor sifatida sotadigan bo'ldi. Kavrak dashtlarimizda ko'p o'sadi. Lekin shu paytgacha uning dorivor ekanini bilganimiz. Shundan so'ng biz ham shu ish bilan shug'ullana boshladik. Avvaliga dalalardagi kavrakdan foydalandik. Qarasak, o'simlik tez orada kamayib ketadigandek. Shundan so'ng uning'ini olib, tomorqaga ekadigan bo'ldik. Bugun mahalladagi deyarli barcha xonadonda kavrak

yomg'ir suvi yig'ishni yo'lga qo'ygandik, — deydi Abudusalim Egamshukurov. — Natija kutganimizdan ham yaxshi bo'ldi. Bir mavsum davomida har bir hovuzda 100-150 tonnagacha suv jamg'arildi. Tomorqalar obod bo'lib, aholi daromadi sezilarli oshdi. 15 xonadonning yashash tarzi keskin o'zgarгани boshqalarni ham mehnatga chorladi. Bugun deyarli barcha shu usuldan foydalanmoqda. Keyingi besh-olti yilda turmush tarzimiz ancha yaxshilandi. Hozir mahallamizda ishdan otdam yo'q.

Dehqonobod tumani hokimligi mas'ullarining aytishicha, bugun tumanda 12 ta mahalla kavrakchilikka ixtisoslashtirilgan. Natijada aholi tomorqalaridan yaxshilash daromad olmoqda. Hozir tumanda jami 11 ming 400 gektardan ortiq yerda kavrak o'zimgi yetishtirilayapti. Asosan, farmatsevtika va parfyumeriya sanoati uchun hamda ziravor sifatida ishlatiladigan bu o'simlikka xorijda talab yuqori.

ekilgan. Shu orqali aholi daromad topmoqda. Ishsizlik tugatilib, kambag'allik yakunlanish arafasida.

— Ilgari ishsiz edim. Sharoit bo'lsa, biror yo'nalishda ishlab niyatida yurardim. 40 sotix tomorqam bor, — deydi mahalla tadbirkorlaridan Qudrat Soliyev. — 2017-yili tomorqamning bir qismiga kavrak ekdim. Yildan yilga ko'paytirib, 40 sotix maydonning hammasini kavrakzorga aylantirdim. Ikki yil avval Marg'londan 300 tup bodom ko'chati olib kelib ekdim. Yomg'ir suvini yig'ib, ishlatish maqsadida 70 million so'm sarflab, 70 tonna sig'imli hovuz qurdirdik. Tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish tizimini ishga tushirdik. O'tgan yili 200 million so'm daromad oldik. Bu yil undan ham ko'proq foydadan umidvormiz. Ayni paytda 50 ming tup kavrak o'zimgi ko'chatini tayyorladik. Bu ham qo'shimcha kirim bo'ladi. Yomg'irilatib sug'orish natijasida ko'chatlar ham yetilib qoldi. Bir tup ko'chat 2000 so'mdan sotiladi. Aslida, shuncha ko'chat bir sotix yerda tayyor bo'lgan. Lekin daromadini hisoblasangiz, 100 million so'mdan oshadi. Bu yildan esa bodomlarimiz ham hosilga kiradi.

Ko'p yillar davomida hudud aholisini oqar suv yo'qligi qiyinab kelgan. "Izlagan imkon topar", deganlaridek, aholi bugun buning ham uddasidan chiqdi. Endi odamlar tomorqaning bir burchagida kichikroq hovuz qurib, uni betonlab



**Guzardagi gurunlar**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi, Imom Termiziy markazi, yangi muzey va kutubxonalar qurilishi ma'naviy yuksalishning muhim belgidir.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

TO'RT MUQADDAS KALOMDA MUJASSAM HAYOT FALSAFASI

O'zbekiston xalqi bugun yana bir ulug' va tarixiy sana – davlat mustaqilligining 35 yilligini shod-u xurramlik, g'urur va iftixor, shukronalik tuyg'ulari bilan qarshi olmoqda. Bu oddiy bayram sanasi emas, xalqimizning asrlar davomida orzu qilgan ozodligi, erkinligi, milliy qadr-qimmatini, davlatchilik sha'ni va buyuk kelajakka ishonchi tantanasidir.



Azizbek AMONOV, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Respublika Ma'rifat targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

Bu yilgi bayram shodiyonalari "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya asosida nishonlanmoqda. Bu shior shunchaki so'zlar emas. Bu O'zbekistonning buguni va ertasi, xalqimizning orzu-intilishi, davlatimizning taraqqiyot strategiyasi va milliy g'oyasining qisqa, lekin teran ifodasidir. Ushbu to'rt muqaddas tushuncha — Vatan, xalq, yangi hayot va kelajak — mamlakatimiz hayotining butun mazmunini belgilab bermoqda. Shuningdek, "Yagona Vatan", "yagona xalq", "yangi hayot" va "kelajak yaratamiz" kabi to'rt juft so'z birikmasida esa yangi O'zbekistonning ezgu maqsadlari, orzu-intilishlari mujassamlashtirilgan ulkan falsafa namoyon bo'ladi.

Muqaddas zamin oldidagi buyuk majburiyat

Vatan inson uchun faqatgina tug'ilgan makon emas, balki taqdir, qismat va ma'naviy tayanchdir. Ona qanday aziz bo'lsa, Vatan ham shunday azizdir. Chunki inson tilini, dilini, qadriyatini, orzu-umidini aynan shu zaminda topadi.

O'zbekiston istiqlol yillarida tom ma'noda mustaqil davlat sifatida shakllandi. O'z armiyasi, o'z Konstitutsiyasi, milliy valyutasi, tashqi siyosati va o'z taraqqiyot yo'liga ega mamlakatga aylandi. Ayniqsa, so'ngi 10 yilda yagona Vatan g'oyasi amalda yanada kuchaydi. Hududlarni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi. Yo'llar, ko'priklar, temir yo'llar, aeroportlar qurildi va rekonstruksiya qilindi. Yangi uy-joy massivlari barpo etildi. Bugun barcha hududlarda tarixiy meros va qadriyatlarimiz hamda zamonaviylikni uyg'unlashtirgan go'zal qiyofaga ega obod qishloq va shaharlarni ko'rasiz.

Yangi Toshkent shahri qurilishi kelajakka tashlanayotgan ulkan qadamdur. Zamonaviy shaharozlik, yashil hududlar, raqamli boshqaruv va intellektual infratuzilma asosida barpo etilayotgan bu shahar yangi O'zbekiston timsoliga aylanoqda.



emas, "Men vatan uchun nimalar qilaman?" deb yashaydigan avlod sifatida tarbiyalash yagona Vatan g'oyasini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Xalqimiz — ulkan boyligimiz

O'zbekistonning yer osti boyluklari ko'p, imkoniyatlari keng. Ammo eng katta boyligimiz yagona, ahil va mehnatkash xalqimizdir.

So'ngi yillarda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga katta e'tibor berildi. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari ahil va inoqlikda, bag'rikenglik, umuminsoniy tamoyillarga xos yagona bir xalq bo'lib yashab kelmoqda. Ularning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlarini va urf-odatlarini saqlashi va rivojlantirishi uchun 150 ga yaqin milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Turli millat vakillarining tili, madaniyati va urf-odatlarini asrash uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda yurtimizdagi va xorijdagi vatandoshlarimizning har tomonlama manfaatlarini qo'llab-quvvatlab kelayotgan Do'slik jamiyatlarini faoliyatini ham kengaytirildi. Davlatimiz rahbari qaysi mamlakatga borsa, o'sha yerda istiqomat qilayotgan, ishlayotgan yoki o'qiyotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashadi. Ularning fikri, takliflarini eshitadi, qo'llab-quvvatlaydi. O'z navbatida, ular ham ortida doim O'zbekiston turganini his qiladi.

Prezidentimizning xalq bilan muloqot siyosati esa jamiyatda ishonch muhitini yanada kuchaytirdi. Xalq qabulxonalarini, virtual qabulxonalarini, mustaqil daromad topadi, huquqini biladi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuning uchun ta'lim sohasidagi ijtimoiy himoyaga xarajat emas, kelajakka kiritilgan eng oqilona sarmoya sifatida qaralishi lozim.

Birgina 2025-yil yakuni bo'yicha 5 million aholi daromadi oshirilib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga kamaydi. 1,5 millionga yaqin aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Mahalla tizimining yangi bosqichga chiqqani xalq birligining amaliy ifodasidir. Joriy yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlanishi va davlat dasturidagi misli ko'rimagan ustuvor vazifalar yuritdoshlarimiz hayoti farovonligiga zamin yaratmoqda. Shu tariqa mahallalar bugun tarbiya maskani, muammo yechimi, saxovat va hamjihatlik markaziga aylandi.

Islolotlarning asosiy mazmuni

Yangi O'zbekiston — yangi fikrlash, yangi boshqaruv, yangi imkoniyatlar va yangi hayot demak.

So'ngi yillardagi islohotlar xalq hayotini tubdan o'zgartirdi. Qaysi o'zgarishlar deysizmi? Bir eslang, plastik kartangizdagi mablag'ni 20 foizdan kamiga naqdlashtirganmisiz yoki bankdan valyuta sotib olganmisiz? Ularni to'siq yo'q. O'zingiz yashab turgan joy — mahallaning ichki yo'llari, ijtimoiy soha obyektlarini sizning tashabbusingiz, tanlovingsiz asosida qurilayotgani ham ayni haqiqat. Davlat sizning munosib yashashingiz uchun bor kuch-resurslarini ishga solayotgani, buni huquqiy jihatdan kafolatlab, zimmasiga katta mas'uliyat olganiga nima deysiz?!

Hozir-chi?! Bugun vaziyat tamoman boshqacha, barchasi siziz — "Inson uchun!". Tuman yoki viloyatni qo'ya turing, Respublika darajasidagi rahbarlar, hatto prezidentga ham onlayn murojaat yo'lashingiz mumkin. Buning uchun barcha sharoit yaratilgan, biror to'siq yo'q. O'zingiz yashab turgan joy — mahallaning ichki yo'llari, ijtimoiy soha obyektlarini sizning tashabbusingiz, tanlovingsiz asosida qurilayotgani ham ayni haqiqat. Davlat sizning munosib yashashingiz uchun bor kuch-resurslarini ishga solayotgani, buni huquqiy jihatdan kafolatlab, zimmasiga katta mas'uliyat olganiga nima deysiz?!

Yoki ta'lim yo'nalishini olaylik. Keyingi yillarda oliy ta'lim bilan qamrov keskin oshdi: 2016-yilda 9 foiz bo'lgan, hozir esa 44 foiz. Prezident maktablari, ijod maktablari, texnikumlar, kasb-hunar markazlari ochildi. Yoshlar uchun grantlar ko'paytirildi.

Tibbiyotdagi yangilanishlar ham g'oyat salmoqli: yangi klinikalar, zamonaviy diagnostika markazlari, qishloq vrachlik punktlari barpo etildi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirildi.

Ijtimoiy himoya reyestri, "Temir daftar", "Ayyollar daftar", "Yoshlar daftar" kabi tizimlar orqali ehtiyojmand oilalarga yordam berildi. Millionlab insonlar ish bilan ta'minlandi, kasb o'rgandi, imtiyozli kreditlar oldi.

Qishloqlarda ichimlik suv, elektr, gaz, yo'l masalalari hal etildi. Yangi uy-joylar qurildi. Bugun xalqimiz kechagidan yaxshi, ertaga esa undan ham yaxshi yashashga intilib mehnat qilmoqda.

Uchinchi Renessans sari

Kelajak kutilmaydi, yaratiladi. Shuning uchun ham yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy maqsadi Uchinchi Renessans poydevorini qurishdir.

Birinchi Renessansda Xorazmiy, Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalar, Ikkinchi Renessansda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi daholar yetishib chiqqan.

Endi navbat Uchinchi Renessansni barpo etishga keldi. Buning asosiy kuchi bilimli yoshlar, zamonaviy ilm-fan va yuksak ma'naviyatdir. Shu maqsadda mamlakatimizda AT parklar, innovatsiya markazlari, texnoparklar, startap dasturlar, raqamli iqtisodiyot loyihalari rivojlantirilmoqda. Sun'iy intellekt, "yashil" energetika, logistika, biotexnologiya kabi sohalarda yangi yo'nalishlar ochildi.

Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi, Imom Termiziy markazi, yangi muzey va kutubxonalar qurilishi ma'naviy yuksalishning muhim belgidir.

Har bir ustoz shogirdi, har bir tadbirkor yangi ish o'rni, har bir olim kashfiyoti bilan kelajak yaratadi. Har bir yosh o'z bilim bilan bu jarayonga hissa qo'shadi.

Bu ezgu g'oya va maqsadlar qayerda tinchlik hukm sursagina amalga oshadi. Bugun dunyoda tinchlikning qadri oshmoqda. Chunki urush bor joyda taraqqiyot, nizo bor joyda farovonlik bo'lmaydi. Adovat bor joyda baxt bo'lmaydi.

Shukr, O'zbekistonda tinchlik, rivojlanish, taraqqiyot barqaror. Bozorlarimiz to'kin, odamlar o'qish, kasb o'rganish, tadbirkorlik yo'lida izlanayotgan, mehnat qilayotgan. Umuman olganda, bular mustaqillikning eng katta samarasidir.

35 yil tarix uchun juda qisqa, xalq uchun ulkan davrdir. Shu yillar ichida O'zbekiston o'z yo'lini topdi, o'z so'ziga ega bo'ldi, o'z kelajagini belgiladi. Ayniqsa, keyingi 10 yilda yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi islohotlar mamlakatni barcha yo'nalishlar bo'yicha butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun xalqimiz birmam, hamjihat, yangilanishlarga, yaratishga qancha qo'ng'ur. Shu asosda yurtimiz yanada obod bo'lyapti, iqtisodiyot global beqarorlikka qaramay, barqaror o'smoqda, yoshlarimiz puxta bilim olmoqda va asosiysi, jamiyatda jipslik, farovonlik oshmoqda.

Ha, biz yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yarataymiz. Bu ishlar izchil davom etadi. Zero, bosh g'oyadagi yagona Vatan — muqaddas uyimiz, yagona xalq — buyuk kuchimiz, yangi hayot — ezgu maqsadimiz, kelajak yaratishimiz — umumiy burchimiz.

Mulohaza

TA'LIM — IJTIMOIY HIMOYANING UZOQNI KO'ZLAGAN SHAKLI

Ta'lim haqida gap ketganda, ko'pchilikning ko'z oldiga maktab, sinfxona, darslik, o'qituvchi va imtihon keladi. Ammo "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni diqqat bilan o'qigan inson ancha chuqurroq ma'noni anglay boshlaydi. Ya'ni ushbu qonunning eng muhim jihati shundaki, ta'lim faqat bilim berish tizimi sifatida talqin qilinmaydi. U insonni jamiyatga integratsiya qilish, bolalarning imkoniyatini o'chish hamda ehtiyojmand oilalar farzandlarini, qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum yoki ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj bolalarga ko'mak berishning huquqiy poydevori sifatida namoyon bo'ladi.



Xususan, qonunda ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmastik asosiy prinsiplardan biri sifatida belgilangan. Inklyuziv ta'lim maqsadida alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlar xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ko'rsatilgan. Uning 7-bobi esa "Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish" deb nomlangan. Ana shu joyda qonunning ijtimoiy mohiyati ochildi, maktab bolani faqat baholaydigan maskan bo'lib qolmay, uni himoya qiladigan, ko'taradigan, jamiyatga olib kiradigan institutga aylandi. Qaysi oilada tug'ilgani, sog'lig'ida qanday cheklor borligi, ota-onasining moddiy holati yoki ijtimoiy vaziyati bolaning kelajagini belgilab bermasligi uchun qonun ta'limni ijtimoiy adolat mexanizmini aylantiradi.

tarmog'i kengaygani, yangi darsliklar yaratilgani, o'qituvchilar mehnati va ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratilgani qayd etilgan. Shuningdek, "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun ta'lim muassasalarini ham tizimning muhim ishtirokchisi sifatida belgilaydi. Unda ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalarini vakolatlari alohida ko'rsatilgan. Ta'lim muassasalarida bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha dasturlar va mexanizmlarni ishlab chiqish, amalga oshirish hamda nazorat qilish vazifasi nazarda tutilgan. Ikki qonun bir-birini to'ldiradi. Birinchisi bolaga bilim, imkoniyat va tenglik eshigini ochsa, ikkinchisi shu eshikdan kirgan bolaning xavfsizligi, sha'ni, ruhiy holati va huquqlarini himoya qiladi.

Zamonaviy davlatda maktabga faqat ta'lim muassasasi sifatida qaralmaydi. U ijtimoiy signal markazi, bolaning holatini sezuvchi

birinchi tizimdir. Bolaning kayfiyati, davomati, o'zlashtirishi, muloqoti, jismoniy va ruhiy holatidagi o'zgarishni eng avval maktab ko'radi. Agar bola maktabga kelmay qo'ysa, bu faqat davomat masalasi sifatida qolmasligi kerak. Uyda muammo bormi, oilada og'ir vaziyat yuzaga kelganmi, bola mehnatga jalb qilinganmi, zo'ravonlik xavfi mavjudmi, sog'lig'i yoki nogironligi sabab o'qishda qiyalyaptimi — ta'lim tizimi ana shu savollarni davlat oldiga olib chiqadigan birinchi maydonga aylandi.

Jahon tajribasi ham aynan shu yo'nalishni ko'rsatmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda inklyuziv ta'limni huquqiy jihatdan belgilagan mamlakatlar soni ortib bormoqda. 2025-yilga kelib mamlakatlarning 84 foizi inklyuziv ta'lim ta'rifini qabul qilgan. UNESCO yana qariyb 240 million bola muayyan nogironlik shakliga ega ekanini, dunyo mamlakatlarining taxminan 40 foizida o'qituvchilar inklyuziv bo'yicha yetarli tayyorgarlikdan o'tmasligini qayd etadi.

qilishi, ehtiyojiga mos qo'llab-quvvatlov olishi kerak.

Jahon banki ma'lumotlarida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi oshgani keltiriladi. Buning ijtimoiy ma'nosi bola qancha erta ta'lim muhitiga kirs, nutqi, fikrlashi, ijtimoiy ko'nikmasi, maktabga tayyorgarligi shuncha mustahkam bo'ladi degani.

Ta'lim — kambag'allikka qarshi eng sokin, ammo eng ta'sirli javob. Bir oilaga moddiy yordam berish uni bugungi qiyinchilikdan chiqaradi. Bolani sifati ta'limga olib kirish esa oilaning ertangi yo'lini o'zgartiradi. Bilim olgan bola kasb tanlaydi, mustaqil daromad topadi, huquqini biladi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuning uchun ta'lim sohasidagi ijtimoiy himoyaga xarajat emas, kelajakka kiritilgan eng oqilona sarmoya sifatida qaralishi lozim.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunda yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum, jismoniy, aqliy, ruhiy nuqsonli, ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj bolalarni o'qitish va tarbiyalashga oid alohida normalar mavjud. Ularning insonparvarlik mohiyati shundaki, qonun eng zaif vaziyatdagi bolani ta'limdan tashqarida qoldirmaslikni davlat majburiyati sifatida ko'radi.

Yangi yondashuvda maktab, mahalla, ijtimoiy xodim va psixolog birgalikda bolaning holatini o'rganadi. Sabab aniqlanadi. Ehtiyoj bo'lsa, oilaga ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi, bolaga psixologiy yordam beriladi, ta'limdan orqada qolgan qismini to'ldirish uchun



Bekzod ABDUHAKIMOV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi

qo'shimcha ko'mak tashkil etiladi. Ana shunda qonun qog'ozdagi norma bo'lib qolmay, bola hayotida amaliy himoyaga aylandi.

Nogironligi bo'lgan bola umumta'lim maktabida o'qishni istaydi. Agar maktab binoga kirish, sinfda harakatlanish, o'quv materialini qabul qilish, tengdoshlar bilan birga ishtirok etish imkonini yaratsa, bola jamiyatdan ajralmaydi. O'zini "alohida" muhitda emas, umumiy hayot ichida ko'radi. Inklyuziv ta'limga kuchi ham shu yerda: u bolaga bilim berish bilan birga boshqa bolalarga ham insonni turli imkoniyatlari bilan qabul qilish madaniyatini o'rgatadi.

Ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun uchta katta saboq beradi.

Birinchisi, har bir bola ehtiyojlari, qobiliyati, xavfi va orzusi bor inson sifatida ko'rinishi lozim.

Ikkinchisi, maktab yolg'iz ishlamasligi kerak. Ta'lim, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ichki ishlar, mahalla va oila o'zaro bog'liq holda harakat qilganda bola haqiqiy himoya ostida bo'ladi.

Uchinchisi, qonunning qadri uning ijrosida. Inklyuziv sinf ochilsa-yu, o'qituvchi tayyorlanmasa, pandus qurilsa-yu, o'quv metodikasi o'zgartirilsa, bola maktabga kirsayu, o'zini yolg'iz his qilsa, islohot yarim yo'lda qoladi. Shuning uchun qonunga oddiy ta'lim hujjati sifatida qarash mumkin emas. U ijtimoiy davlat g'oyasining maktabdagi ifodasidir.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya faqat nafaqa, moddiy yordam yoki bir martalik qo'llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmaydi. U bolaning ta'lim olishi, kasb egallashi, xavfsiz o'sishi, jamiyatga qo'shilishi va o'z imkoniyatini ochishi bilan bog'lanadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Ta'lim to'g'risida"gi va "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar bir yo'nalishdagi ikki muhim tayananchdir.

Ta'lim — ijtimoiy lift. Ammo u ishlahi uchun lift eshigi hamma uchun ochiq bo'lishi, ichkarida xavfsizlik ta'minlanishi, manzil esa aniq bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilgan qonunlar ana shu manzilni ko'rsatadi. Huquqiy va ma'naviy ishonch beradi.

Ta'limga kiritilgan sarmoya yillar o'tib, mutaxassis, oila, jamiyat, iqtisodiyot va madaniyat sifatida qaytib keladi. Maktabda himoyalangan bola qonunni hurmat qiladigan fuqaroga aylandi. Imkoniyat berilgan bola boshqalarga imkoniyat yaratadi. Shu ma'noda, qonunlar bolani taqdir hukmiga tashlab qo'ymaydi. Uni maktabga, kasbga, jamiyatga, kelajakka olib kiradi.

